




THE MOTIF OF NOSTALGIA IN GULI TARAQQIY'S STORY "THE SHAMIRON BUS"

Dinora Bekmuratova

4th-year student of the Classical Persian-English group
Higher School of Turkic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies

O. Turdiyeva

Doctor of Philological Sciences
Associate Professor at the Higher School of Iranian and Afghan Studies
TSUOS
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Guli Taraqqiy, childhood memories, nostalgia, social inequality, proverbs, poetic imagery, injustice, friendship.h

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article analyzes Guli Taraqqiy's story "Shamiron Bus", exploring its theme, main characters, and philosophical ideas. The author's childhood memories, views on human relationships, as well as the proverbs and aphorisms used in the story, are utilized to reveal the main idea of the work.

GULI TARAQQIYNING "SHAMIRON AVTOBUSI" HIKOYASIDA NOSTALGIYA MOTIVI

Dinora Bekmuratova

4-kurs mumtoz fors-ingliz guruhi talabasi
"Turkshunoslik" oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O. Turdiyeva

filologiya fanlari doktori
"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti
TDSHU
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Guli Taraqqiy, bolalik xotiralari, nostalgiya, ijtimoiy tafovut, maqollar, poetik tasvir, adolatsizlik, doʻstlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Guli Tarraqiyning "Shamiron avtobusi" hikoyasi tahlil qilinib, uning mavzusi, asosiy qahramonlari va falsafiy gʻoyalari yoritiladi. Muallifning bolalik xotiralari, insoniy munosabatlarga boʻlgan munosabatlari, shuningdek, hikoyada ishlatilgan maqollar, aforizmlar orqali asarning gʻoyasi ochib beriladi.

МОТИВ НОСТАЛЬГИИ В РАССКАЗЕ ГУЛИ ТАРАККИ “АВТОБУС ШАМИРОН”

Динора Бекмуратова

Студентка 4-го курса группы классического персидского и английского языков

Высшая школа тюркологии

Ташкентский государственный университет востоковедения

О. Турдиева

доктор филологических наук

доцент Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гули Таракки, воспоминания о детстве, ностальгия, социальное неравенство, пословицы, поэтические образы, несправедливость, дружба

Аннотация: В данной статье анализируется рассказ Гули Таракки "Автобус Шамирон", освещаются его тема, главные герои и философские идеи. Воспоминания автора о детстве, отношения к человеческим взаимосвязям, а также пословицы и афоризмы, использованные в рассказе, раскрывают основную идею произведения.

Guli Tarqqiy 1939-yil 7-oktabrda Tehronda tugʻilgan. Otasi Lutfulloh Tarqqiy “Taraqqiy” jurnalining muharriri edi. Guli Taraqqiy Shamirondagi maktabda, soʻngra Anushirvondagi oʻrta maktabda oʻqidi. 1954-yilda oʻrta maktabni tamomlagach, oilasi bilan Amerikaga koʻchib ketdi. U Amerikada 6 yil yashab, falsafani yoʻnalishini tugatdi. Amerikadagi hayotni qabul qila olmadi va Eronga qaytdi. Qaytgandan keyin hikoyalar yozishni boshladi. U Tehron universitetining Tasviriy sanʼat fakultetida 9 yil dars berdi, keyinchalik Erondagi Islom inqilobidan soʻng Fransiyaga ketib, u yerda ijodini davom ettirdi. Uning "Qalbimning buyuk ayoli", "Shamiron avtobusi", "Osmondagi uy" kabi mashhur hikoyalari bor. Eng yirik asari esa "Qish uyqusi" romanidir. Uning “Qalbimning buyuk ayoli” deb nomlangan hikoyasi fransuz tiliga tarjima qilingan va 1985- yilda Fransiyada “Yilning eng yaxshi hikoyasi” deb topilgan.

Guli Taraqqiyning “Shamiron avtobusi” hikoyasi zamonaviy Eron adabiyotining mashhur asarlaridan biri boʻlib, “Tarqoq xotiralar” toʻplamida chop etilgan. Ushbu hikoyada insoniy munosabatlar, sinfiy tafovutlar va ularning odamlar hayotiga taʼsiri haqida fikr yuritiladi. Hikoyada

voqealardan ko'ra, qahramonning his-tuyg'ulari va kechinmalari muhimroq o'rinni egallaydi. Xususan, nostalgiya motivi yetakchi o'rinni egallaydi. Ma'lumki, nostalgiya o'tmishga, uning o'ziga xosligiga, imkoniyatlariga va voqealariga, ayniqsa "o'tmishdagi yaxshi kunlar" yoki "iliq bolalik" ga intilish bilan bog'lanadi. Shu jihatlari bilan "Shamiron avtobusi" modern adabiyot namunasi bo'lib, nostalgik, ya'ni sog'inch hikoya janrlariga mansub deyish mumkin.

Hikoya birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Qahramonining bolaligi qor yog'ishidan keyingi tinch va sovuq manzara bilan boshlanadi. U bolaligida qordan zavqlanganini eslaydi, maktab yopilishini intiqlik bilan kutganini va yaqinlari bilan o'tkazgan baxtli kunlarini xotirlaydi. Hikoyada Shamiron avtobusining kelishini kutish tasvirlanadi, bu esa bolalik va ulg'ayish o'rtasidagi o'tish davrini ramziy ifodalaydi. Syujetning burilish nuqtalaridan biri qahramonning oilasi bilan Fransiyaga ketishi bo'ladi. Bu uning bolalik dunyosidan uzoqlashishi, begona bir muhitga moslashishi kerakligini anglatardi. Hikoya qahramonning yillar o'tib katta bo'lishi, eski Shamiron avtobusini va Aziz og'ani eslab, o'zining shirin xotiralarini yodga olish bilan tugaydi.

Hikoya qahramoni – ismi ko'rsatilmagan o'rta yoshli ayol Parijda qor yog'ayotganini ko'rib, bolalik xotiralariga qaytadi. Bizningcha, bu hikoya avtobiografik hikoya hisoblanadi. Chunki hikoya qahramoni Guli Taraqqiy bilan bir xil o'tmishga ega. Bolaligida u badavlat oilaning kichik qizi bo'lib, har kuni Shamiron avtobusi bilan maktabdan uyga qaytardi. Qor tasviri, bolalik xotiralarini, Tehrondan Parijga ko'chib ketish holati hikoyaga o'ziga xos qiziqish uyg'otadi.

Hikoya qahramoni – qizaloq ham xuddi shunday avtobusda qatnaydi:

دنیای من پر از برف، نور و گرمای دست‌های عزیزآقا بود. برایم مهم نبود که او راننده اتوبوس است یا مردی از طبقه‌ای دیگر. تنها چیزی که می‌فهمیدم، مهربانی و لبخندهای او بود.

"Mening dunyom qor, nur va Aziz og'aning issiq qo'llaridan iborat edi. U avtobus haydovchisi yoki boshqa tabaqaga mansub ekanligi men uchun muhim emasdi. Men faqat uning mehribonligi va tabassumlarini his qilardim."

Bu tasvir qizaloq odamlarni ijtimoiy mavqei bo'yicha emas, yuragi orqali qabul qilishini ko'rsatadi. Ammo vaqt o'tishi bilan oilasi, jamiyat bosimi tufayli u ham kattalardek sinfiy tafovutlarni anglay boshlaydi va bolaligidagi beg'ubor qarashlaridan voz kechishga majbur bo'ladi.

Aziz og'a jamiyatning oddiy, mehnatkash qatlamining timsolidir. U hayotida ko'plab qiyinchiliklarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, baribir qalbida iliqlik va mehrni saqlab qolgan. Tashqi ko'rinishidan u qo'pol va jiddiy ko'rinsa ham, aslida yuragi mehrga to'la inson bo'lgan. Asarda portret san'atidan mahorat bilan foydalanilgan:

عزیزآقا مردی بود با دستی بزرگ و زمخت که فرمان اتوبوس را محکم می‌گرفت، اما وقتی برایم خوراکی می‌آورد، دست‌هایش پر از محبت می‌شد. نگاهش جدی بود، اما گاهی که می‌خندید، مهربانی عجیبی در چشمانش موج می‌زد.

"Aziz og'a katta va dag'al qo'llari bilan avtobus rulini mahkam ushlab turardi, lekin qachonki menga shirinlik uzatsa, qo'llari mehr bilan to'lib ketganday bo'lardi. Uning qarashlari jiddiy edi, lekin ba'zan kulib yuborganida, ko'zlarida ajib bir samimiyat chaqnardi."

Qizning oilasi farzandining Aziz og'a bilan do'stligini qabul qilmaydi, chunki u ishchilar tabaqasidan edi. Ammo Bolalar odamlarni tashqi ko'rinishi yoki jamiyatdagi mavqeiga qarab emas, yuragining pokligi bilan baholaydi. Hikoyaning asosiy g'oyalaridan biri ham shunda.

Hasan og'a - avtobusning haydovchisining yordamchisi – chiptachisi sifatida tasvirlangan. U qattiqqo'l, ba'zan hazilkash, lekin ko'proq jiddiy xarakterga ega. Aziz og'adan farqli ravishda, u yo'lovchilarga nisbatan unchalik samimiy emas, balki ko'proq tartib va intizomga e'tibor qaratadi.

حسن آقا همیشه با صدای بلند سر مسافران فریاد می‌زد، بلیت می‌خواست و نظم اتوبوس را برقرار می‌کرد. اما گاهی وقتی به من نگاه می‌کرد، لبخندی می‌زد و با چشمی کوچک، مهربانی‌اش را نشان می‌داد

"Hasan og'a har doim yo'lovchilarga baland ovozda baqirib, chipta so'rardi va avtobusda tartibni saqlardi. Ammo ba'zida, menga qaraganda, u kulib qo'yardi va kichik bir ko'z qisish bilan o'z mehribonligini namoyon qilardi."

Bu tasvir Hasan og'aning tashqi tomondan qattiqqo'l, lekin ba'zan samimiyat va iliqlikni ham namoyon qiladigan inson ekanini ko'rsatadi.

Guli Taraqqiy "Shamiron avtobusi" hikoyasida turli xil tasviriy vositalardan foydalangan. Shamiron avtobusi – jamiyat ramzi, ya'ni asardagi avtobus butun jamiyat va ijtimoiy tuzumning ramzi sifatida tasvirlangan. U har kuni bir xil yo'nalishda harakat qiladi, yo'lovchilar esa o'z hayot yo'llarida unga moslashishga majbur. Bu tasvir jamiyatning qat'iy qoidalariga ishora qiladi – kim bu tizimga moslashmasa, undan chiqarib yuboriladi.

اتوبوس همیشه در همان مسیر حرکت می‌کرد، بدون تغییر، بدون توقف برای کسانی که از قافله عقب می‌ماندند

"Avtobus har doim bir yo'nalishda harakat qilardi, o'zgarishsiz, ortda qolganlar uchun to'xtamasdan."

Aziz og'aning qo'llari – mehr va samimiyat ramzi sifatida tasvirlanadi. Hikoyada Aziz akaning katta, dag'al, lekin mehribon qo'llari ko'p bor tasvirlanadi. Bu tafsilot uning tashqi ko'rinishi bilan ichki dunyosi o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Uning qo'llari hayotning mashaqqatlarini ifodalasa-da, u qizaloqqa mehribonlik ko'rsatadi.

"دست‌های عزیز آقا بزرگ و زیر بودند، اما وقتی برایم خوراکی می‌آورد، پر از محبت می‌شدند"

"Aziz og'aning qo'llari katta va dag'al edi, lekin menga shirinlik olib kelganida, mehr bilan to'lib ketardi."

Hikoyada qor – beg'ubor bolalik va o'tkinchi baxt ramzi. Hikoyada qor detali tez-tez uchraydi va qizaloqning bolaligidagi sof, beg'ubor dunyoni aks ettiradi. Lekin qor tez erib ketishi mumkin bo'lganidek, qizaloqning Aziz aka bilan bo'lgan iliq munosabatlari ham jamiyat bosimi tufayli yo'qoladi, "erib ketadi".

برف آرام روی زمین می‌نشست، مثل خاطرات کودکی که آرام آرام محو می‌شود

"Qor yerga ohista tushardi, xuddi bolalik xotiralari asta-sekin yo'qolgani kabi."

Ota-onaning e'tirozi – jamiyat tomonidan qo'yilgan chegaralar sifatida tasvirlangan. Qizaloqning ota-onasi uning Aziz og'a bilan muloqot qilishini istamaydi. Bu esa ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi keskin farqlar va jamiyatda mavjud qoidalarni ramziy ifodalaydi.

مادرم گفت که دیگر نباید از دست‌های زبر یک راننده‌ی اتوبوس خوراکی بگیرم. این کار برای ما مناسب نیست

"Onam menga avtobus haydovchisining dag'al qo'llaridan shirinlik olishim mumkin emasligini aytdi. Bu bizga mos emas."

Bu epizodlar qizaloqning beg'ubor qarashlaridan voz kechib, jamiyat tomonidan belgilangan tartib-qoidalarga moslashishga majbur bo'lishini ko'rsatadi.

Hikoyada qator poetik tasvir vositalari ham uchraydi va bu hikoyaning hissiy ta'sirini oshiradi:

قطره‌های برف مثل بوسه‌های سرد روی صورتم می‌نشستند

"Qor tomchilari yuzimga sovuq o'pichlar kabi qo'nardi."

Bu metafora hissiyotlarning sovuqlashishi va iliqlikning yo'qolishini tasvirlaydi.

Hikoyadagi asosiy konflikt beg'ubor bolalik bilan ijtimoiy me'yorlar o'rtasidagi to'qnashuvdan kelib chiqadi. Bu ziddiyat qizaloq va Aziz og'aning tabiiy, samimiy munosabatlari jamiyat tomonidan nomaqbul deb hisoblanganida kuchayadi. Konfliktning yuzaga kelishi esa qizaloq bir kuni doimgidek maktabdan qaytayotganda Aziz og'a boshqaradigan Shamiran avtobusiga chiqishi bilan boshlanadi. Aziz og'a unga mehribonlik qiladi, unga shirinliklar beradi va mehr ko'rsatadi. Qizaloq esa bu mehrni iliqlik bilan qabul qiladi. Biroq, uning ota-onasi bu do'stlikni nomaqbul deb biladi, chunki Aziz og'a jamiyatda quyi tabaqaga mansub bo'lgan oddiy haydovchi hisoblanadi. Onasi qiziga Aziz og'a bilan do'st bo'lmasligini tayinlaydi va bu o'ziga xos ma'naviy to'siq yaratadi.

Bu esa konfliktning cho'qqisiga chiqishini ko'rsatadi. Chunki qizaloq Aziz og'aning mehribonligini his qilgan bo'lsa-da, jamiyat va oilasining qarashlari uni undan uzoqlashishga majbur qiladi. Qizaloq kattalar dunyosining yozilmagan qoidalarini anglab yetadi va bolaligini yo'qotib, jamiyat talablariga moslashishga boshlaydi.

دیگر در اتوبوس، وقتی عزیزآقا نگاهم می‌کرد، سرم را پایین می‌انداختم. انگار چیزی درونم شکسته بود

"Endi avtobusda, Aziz og'a menga qaraganida, boshimni egardim. Go'yo ichimda nimadir sinib ketgandek edi."

Bu parchadan qizaloqning ichki olami o'zgarishi tasvirlanadi. U oldingidek beg'ubor emas, jamiyatning talablariga moslashib, samimiylikdan uzoqlashgan.

Hikoya qahramonlari o'rtasida qarama-qarshilik, kuchli ziddiyat ham, ochiq-oydin konflikt ham, aniq yechim ham yo'q yo'q, chunki muammo individual emas, balki ijtimoiy masala sifatida ko'rsatilgan. Shunga ko'ra yechim qahramon qiz ichki ruhiy holatining o'zgarishi bilan yakunlanadi

deyish mumkin. Hikoya qizaloqning ichki dunyosidagi o'zgarish bilan yakunlanadi, unda beg'ubor bolalik va samimiyat asta-sekin jamiyat qoidalariga bo'ysunib ketadi. Bu hikoya bolalik bilan kattalar dunyosining keskin tafovutini, ijtimoiy tabaqalanish, boy-kambag'al o'rtasidagi ko'z ilg'amas to'siqlarni va bu holatning insoniy munosabatlarga ta'sirini ko'rsatadi.

Hikoyada Eron xalq maqollaridan ham keng foydalanilgan:

دندان های طلا همیشه در تاریکی می درخشند

Oltin tishlar doimo qorong'ida porlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Guli Tarraqiy Eronni tark etib, muhojirlikda yashagan yozuvchi hisoblanadi. Bolalik xotiralari, sog'inch mavzusi uning asarlarida yetakchilik qiladi. "Shamiron avtobusi" hikoyasi katta ehtimol bilan muallifning o'zining bolaligini eslash, o'tmish bilan bog'liq hissiyotlarini ifodalash va o'sha davrdagi jamiyatning ijtimoiy holatini ko'rsatib berish usuli bo'lib xizmat qiladi. Bu hikoya hayotning oddiy, ammo achchiq haqiqatlarini ochib beruvchi avtobigrafik hikoyadir. Hikoya tuyg'ular bilan boyitilgan, soda til va badiiy tasvirlarga boyitib yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ترقی، گلی. (1383). خاطره های پراکنده (مجموعه قصه). تهران: نیلوفر.
2. حدادی، الهام. (1388). «رویکردی روایت‌شناختی به داستان دو دنیا اثر گلی ترقی». نقد ادبی. سال 2. ش 5. صص 72-41.
3. 2018. بررسی مؤلفه زمان در اتوبوس شمیران بر اساس دیدگاه ژرار ژنت .
4. شمیران. گلی ترقی. ایران . ۲۰۰۵. اتوبوس